



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 186 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoira Azimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
“Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin	



KIRISH

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng daromadli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston ham turizmni iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirib, uni diversifikatsiya qilish hamda xalqaro bozorga integratsiya qilish orqali sektor samaradorligini oshirishga intilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarorini ko'rsatish mumkin. Mazkur hujjatda ekoturizmni rivojlantirish, tabiiy va madaniy meros obyektlarini turistik maskanlarga aylantirish, yashil turizm tamoyillarini joriy etish va mehmonxona xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilangan [1].

Qashqadaryo viloyati o'zining noyob tabiati, boy madaniy merosi va turizm uchun qulay geografik sharoiti bilan ekologik hamda etnografik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq mavjud resurslardan samarali foydalanish darajasi yetarli emas. Shu sababli, Qashqadaryo viloyatida ekologik va etnografik turizmni rivojlantirish uchun mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali iqtisodiy choralarni ishlab chiqish zarur.

Ushbu maqolada hududning turistik salohiyatini oshirish yo'llari, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalar hamda yashil turizm tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Qashqadaryo viloyati o'zining etnografik va ekologik xususiyatlari bilan yuqori turistik salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi [16]. Ushbu resurslarni samarali yo'lga qo'yish mahalliy aholi daromadini oshirish va hududning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Viloyat o'zining milliy urf-odatlarini va an'analarini bilan ajralib turadi. Bunday turizm yo'nalishi etnografik turizm deb ataladi.

Etnografik turizm ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Valen Smit [9] etnik turizmni "mahalliy va ekzotik xalqlarning 'g'aroyib' odatlari nuqtayi nazaridan ommaga sotiladigan narsa" sifatida ta'riflagan. Butler va Hinch [1], shuningdek, Uitford va Ruhanen [11] sayyohlarni ekzotik joziba o'ziga tortishini o'z tadqiqotlarida ta'kidlagan. Graburn [9] hamda McIntosh va Goldner etnoturizmni sayyohlarning mahalliy jamoalar hayot tarzi, san'ati, an'anaviy marosimlari va tabiati bilan tanishish jarayoni sifatida ta'riflagan. McIntosh va Jonson 2005-yilda etnoturizmni mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning samarali vositasi sifatida ko'rsatgan.

Etnoturizm ekologik turizm bilan chambarchas bog'liq. Bec [2] va Heslinga [3] o'z tadqiqotlarida turistik yo'nalishlarni ijtimoiy-ekologik tizim sifatida ko'rib chiqadi. Biroq ular ekologik jihatlarga ortiqcha e'tibor qaratilishi mumkinligini ham qayd etgan. Boshqa olimlar esa turizm nafaqat qisqa muddatli o'zgarishlarga, balki hududning iqtisodiy faoliyati va boshqaruv tuzilmasiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan (Lyu va boshq., 2016) [4].

Turizmning mahalliy jamoalarga ta'siri borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uning etnik tarkibga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini bildirgan bo'lsa-da, McCombes [5], Makkombs va Vankley [6], Stoffelen va Ioannides [8], Tian [10] o'z tadqiqotlarida sayyohlikni samarali boshqarish barqarorlikni oshirishi va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatgan. Yang va Wall 2009-yilda [13] etnik turizm qishloq hududlarida iqtisodiy diversifikatsiya va mahalliy aholi uchun daromad manbai bo'lishini qayd etgan. Chjuang [14] esa infratuzilma va transportning yaxshilanishi tufayli mahalliy jamoalar turizm rivojidan katta foyda ko'rganini tasdiqlagan.

Ushbu tadqiqotlar ekologik va etnografik turizmning o'zaro bog'liqligi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini isbotlaydi. Shu bois, Qashqadaryo viloyatida mazkur yo'nalishlarni rivojlantirishga ilmiy asoslangan strategik yondashuv ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot eksperimental hamda adabiyotlarni tahlil qilish usullariga asoslanadi. Tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyatida ekologik va etnografik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari o'rganildi, shuningdek, ushbu turizm turlarining viloyat iqtisodiyotiga ta'siri baholandi. Ma'lumotlar yig'ish jarayonida ilmiy maqolalar, statistik hisobotlar hamda joylarda o'tkazilgan kuzatuv natijalaridan foydalanildi. Strength va Weakness jihatlari tahlili orqali viloyatdagi turizmning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda xavflari aniqlanib, rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqildi. Bundan tashqari, Scopus va OAK bazalarida joylashtirilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida viloyatning boy etnik tarkibga ega ekani va bu xilma-xillik barcha tumanlarda kuzatilishi aniqlandi. Viloyatda 1,2 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi. Aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etsa-da, tojik, qirg'iz, turkman va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Bu hudud turli madaniy va an'anaviy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, sayyohlar uchun etnoturizm imkoniyatlarini taqdim etadi.

Viloyatning tabiiy-geografik joylashuvi ham turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Masalan, Hisor tog'lari va Kitob geologik qo'riqxonasi noyob tabiiy landshaftlarga ega bo'lib, ekologik hamda sarguzasht turizmni rivojlantirish uchun muhim maskanlar hisoblanadi. Qarshi, Shahrisabz va Koson tumanlarida joylashgan qadimiy yodgorliklar madaniy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatida bir nechta muhim suv omborlari – jumladan, "Tolimarjon", "Qamashi" va "Chimqo'rg'on" mavjud bo'lib, ularni turizmga jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Viloyatda termal manbalar ham uchraydi. Masalan, Koson va Muborak tumanlaridagi tabiiy issiq suv havzalari tibbiy turizmni rivojlantirish uchun muhim resurs hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatda turizm infratuzilmasining rivojlanmaganligi, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi va marketing bo'yicha kamchiliklar mavjud. Strength va Weakness tahlili orqali quyidagi jihatlar aniqlangan (1-jadval):

1-jadval. Strength va Weakness tahlili¹


Strength	Misol	Weakness	Misol
Tabiiy boyliklar va manzaralar	Hisor tog'lari, Kitob geologik qo'riqxonasi, Surxon-Qashqadaryo milliy bog'i kabi tabiiy maskanlar mavjud.	Infratuzilmaning rivojlanmaganligi	Yo'llar, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa sayyohlik infratuzilmasi hali to'liq rivojlanmagan.
Madaniy va tarixiy meros	Qarshi shahridagi tarixiy obidalar, Langar ota majmuasi, Sariosiyo va Shahrisabzdagi qadimiy yodgorliklar sayyohlarni jalb qiladi.	Marketing va targ'ibot yetishmovchiligi	Viloyatning turistik salohiyati xalqaro darajada yetarlicha reklama qilinmagan.
An'anaviy xalq hunarmandchiligi	Qashqadaryo gilamlari, yog'och o'ymakorligi, milliy liboslar va kulolchilik mahsulotlari etnografik turizmni rivojlantirish uchun muhim.	Mutaxassislar yetishmovchiligi	Sayyohlik gidlari, ekologik turizm bo'yicha mutaxassislar va xorijiy tillarni biladigan kadrlar yetarli emas, mahalliy aholining turizm to'g'rida ma'lumotga ega emasligi
Mehmondo'stlik va milliy an'analar	Mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzi va mehmondo'stligi sayyohlarga qiziqarli taassurot qoldiradi.	Transport va logistika muammolari	Ba'zi tabiat maskanlariga yetib borish qiyin, jamoat transporti yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Jadvaldan qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, viloyatdagi turizmning Strength tomonlari – yuqori resurslar mavjudligi, mahalliy aholining an'anaviy imkoniyatlarining kengligi va milliy xalq hunarmandchiligining shakllanganligi bilan izohlanadi. Weakness tomonlari sifatida esa infratuzilma va transport muammolari, mutaxassislar yetishmovchiligi hamda marketing muammolari ko'rsatilgan.

Ushbu kuchli va zaif jihatlar butun Qashqadaryo viloyatida ko'zga tashlanadi va ularni bartaraf etishga qaratilgan ko'plab ishlanmalar amalga oshirilgan. Biroq, viloyatning eng kuchli tomonlaridan biri – an'anaviy qadriyatlar va urf-odatlarini o'zida saqlab kelayotgan mahalliy aholi orqali mavjud zaifliklarni bartaraf etish imkoniyati mavjud.

Ushbu imkoniyatlarni inobatga olgan holda, turizmga xizmat ko'rsatishning yangi tarmog'ini shakllantirish hamda yashil mehmonxonalar tizimini yaratish imkonini beruvchi quyidagi birlikni amalga oshirish lozim hisoblanadi (1-rasm):

1 Muallif tomonidan tayyorlandi



1-rasm. Yashil mehmonxonalar tizimini yaratish imkonini beruvchi birliklar.

Ushbu uch jihat birgalikda amalga oshirilgan taqdirda, viloyatda ekoturizm va etnoturizmning jadal rivojlanishiga erishish mumkin. Xususan, mahalliy aholining turizmga bo'lgan ishonchini oshirish va ularga xizmatlar ko'rsatish bo'yicha treninglar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan turizmni rivojlantirish strategiyalarini qabul qilish va investorlarni jalb etish bo'yicha aniq choralarni ko'rish zarur.

Qashqadaryo viloyatida turizmning rivojlanishi iqtisodiyotga quyidagi ijobiy ta'sirlarni ko'rsatishi mumkin:

Ish o'rinlarini yaratish va mahalliy aholining daromadlarini oshirish.

Mintaqaviy infratuzilmani yaxshilash.

Madaniy meros va ekologik resurslarni asrab-avaylash.

Xorijiy sayyohlarni jalb qilish orqali valyuta tushumlarini ko'paytirish.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati turizm sohasida katta salohiyatga ega bo'lib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida etnografik va ekologik turizm turlarini rivojlantirish bo'yicha muhim yo'nalishlar belgilandi. Viloyatda etnografik turizm tarmog'i deyarli mavjud emasligini hisobga olgan holda, yangi destinatsiyalarni tashkil etish juda maqbul va istiqbolli yo'l hisoblanadi. Shuningdek, etnografik turizmni ekologik turizm bilan bog'liq holda tashkil etish sayyohlarning ushbu hududlarda uzoqroq qolish imkoniyatini yaratadi.

Bunday imkoniyatlarga erishishning asosiy omillaridan biri – Qashqadaryo viloyatining turistik resurslarga boyligidir. Shu jihatdan quyidagi takliflar dolzarb hisoblanadi:

Milliy an'analar va urf-odatlarining boyligini inobatga olgan holda, mahalliy aholi vakillari bilan hamkorlikda turizm xizmatlarini tashkil etish.

Mahalliy aholining etnik qadriyatlarini inobatga olgan holda, xorijiy sayyohlar urf-odatlarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali madaniy muvozanatni ta'minlash.

Uzoq masofadagi hududlarda mehmonxona muammolarini uy mehmonxonalari va o'tovlar tashkil etish orqali bartaraf etish.

Marketing strategiyalarini takomillashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'llarini ishlab chiqish.

Infratuzilma muammolarini hukumat ko'magida hal etish hamda ushbu infratuzilmaga moslashuvchan transport vositalari bilan hududlarni bog'lash.

Ushbu takliflar amaliyotga joriy etilsa, viloyatda turizm sohasi yanada rivojlanadi, aholi bandlik darajasi ortadi, xizmatlar sektoriga yangi subyektlar qo'shiladi va iqtisodiy faollik izchil oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori <https://www.lex.uz>
2. Butler, R., & Hinch, T. (Eds.) (2007). Tourism and indigenous peoples: Issues and implications. Butterworth-Heinemann.
3. Bec, A., McLennan, C., & Moyle, B. (2016). Community resilience to long-term tourism decline and rejuvenation: A literature review and conceptual model. *Current Issues in Tourism*, 19(5), 431–457. <https://doi.org/10.1080/13683500.2015.1083538>
4. Heslinga, J., Groote, P., & Vanclay, F. (2017). Using a social-ecological systems perspective to understand tourism and landscape interactions in coastal areas. *Journal of Tourism Futures*, 3(1), 23–38. <https://doi.org/10.1108/JTF-10-2015-0047>
5. Lew, A. A., Ng, P. T., Ni, C. C., & Wu, T. C. (2016). Community sustainability and resilience: Similarities, differences and indicators. *Tourism Geographies*, 18(1), 18–27. <https://doi.org/10.1080/14616688.2015.1122664>



6. McCombes, L., Vanclay, F., & Evers, Y. (2015). Putting Social Impact Assessment to the test as a method for implementing responsible tourism practice. *Environmental Impact Assessment Review*, 55, 156–168. <https://doi.org/10.1016/j.eiar.2015.07.002>
7. McCombes, L., & Vanclay, F. (2022). A responsible tourism perspective on tourist-host encounters in community-based tourism. In A. Stoffelen & D. Ioannides (Eds), *Handbook of tourism impacts: Social and environmental perspectives* (pp. 34–57). Edward Elgar.
8. Picard, M., Wood, R. (1997). *Tourism, Ethnicity and the State in Asian and Pacific Societies*. USA: University of Hawaii Press, 259.
9. Stoffelen, A., & Ioannides, D. (Eds) (2022). *Handbook of tourism impacts: Social and environmental perspectives*. Edward Elgar.
10. Smith, V. (1977). *Hosts and guests: The anthropology of tourism*. University of Pennsylvania Press.
11. Tian, B., Stoffelen, A., & Vanclay, F. (2023). Ethnic tourism in China: Tourism-related (dis)empowerment of Miao villages in Hunan province. *Tourism Geographies*, 25(2-3), 552–571. <https://doi.org/10.1080/14616688.2021.1938657>
12. Whitford, M., & Ruhanen, L. (2016). Indigenous tourism research, past and present: Where to from here? *Journal of Sustainable Tourism*, 24(8-9), 1080–1099. <https://doi.org/10.1080/09669582.2016.1189925>
13. Whitford, M., & Ruhanen, L. (2016). Indigenous tourism research, past and present: Where to from here? *Journal of Sustainable Tourism*, 24(8-9), 1080–1099. <https://doi.org/10.1080/09669582.2016.1189925>
14. Yang, L., & Wall, G. (2009). Authenticity in ethnic tourism: Domestic tourists' perspectives. *Current Issues in Tourism*, 12(3), 235–254. <https://doi.org/10.1080/13683500802406880>
15. Zhuang, L., Taylor, T., Beirman, D. va Darcy, S. (2017). Ijtimoiy barqaror etnik turizm: Xitoydagi ikkita Hakka jamoasini qiyosiy o'rganish. *Turistik rekreatsiya tadqiqotlari*, 42 (4), 467–483.
16. O'zbekiston milliy atlası. II-jild. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2010. – 224 b.
17. Ro'ziyev, B., & Xushvaqto'v, R. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA SAFARI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 2(6), 145-149.
18. Vayskulov, R., & Xushvaqto'v, R. (2024). O 'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI. *YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>